

“Mahalla bilan hamkorlik”

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2021-yil 20-apreldagi PF-6208-sonli Farmoni, Oliy va o'rta maxsus ta'lim vazirligining 2021-yil 29 -apreldagi 202-sonli buyrug'i ijrosini ta'minlash yuzasidan, Toshkent shahar Mirzo-Ulug'bek tumanidagi “Shaxrisabz” M.F.Y. bilan TIQXMMI “Suv xo'jaligini tashkil etish va boshqarish” fakulteti hamkorligida Prezidentimizning 5 ta muhim tashabbusi doirasida 2021 yil 4 iyun kuni mahalla yoshlari va faollari ishtirokida sportning shaxmat-shashka turi bo'yicha musoboqa o'tkazildi.



Tadbirda “Shaxrisabz” M.F.Y. raisi Koshetova Jumabike Tanirbergenovna, Raisning oila, xotin-qizlar va ijtimoiy-ma'naviy masalalar bo'yicha o'rinbosari Karabaeva Matluba Sobirovna, shuningdek, fakultet dekani R.Xakimov, dekan o'rinbosari J.Turdiyev, “Ingliz tili” kafedrasini mudiri F.Begov, “Menejment” kafedrasini katta o'qituvchisi A.Mamasadikov, G.Xolmuratova hamda J.Ibragimovlar ishtirok etishdi. Sport musoboqasi mahalla yoshlarida katta qiziqish uyg'otdi. Musoboqa yakunida g'oliblarga kitoblar va sovg'alar topshirildi.



**“SXTE va B” fakulteti dekani o'rinbosari J.Turdiyev ma'lumoti
TIQXMMI matbuot xizmati**